

Belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2024-yilning 1-choragida amalga oshirilgan ishlar

Masofaviy tarzda, videoaloqa orqali o'tkazilgan kengaytirilgan Kengash yig'ilishini boshqarma boshlig'i U. Djumazarov ochib berdi va yig'ilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirib o'tdi.

Yig'ilishda, Buxoro viloyati statistika boshqarmasi boshlig'i tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-son Farmoni doirasida joriy yilning 4-mart kuni tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-114-son Qaroriga alohida to'xtalib o'tildi. Takidlandiki, yangi qarorda:

- Statistika organlarining qonuniy faoliyatiga, shu jumladan, statistika kuzatuvlarini o'tkazish, statistika ma'lumotlarini tayyorlash va ularni e'lon qilish jarayonlariga har qanday aralashishga yo'l qo'yilmaslig'i;

- Boshqarma hamda tuman (shahar) statistika bo'limlari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil va bevosita Statistika agenligiga bo'ysunishi;

- Buxoro viloyatining 2024-2025-yillarda erishishi lozim maqsadli ko'rsatkichlari;

- Boshqarma hamda tuman (shahar) statistika bo'limlari tarkibi va nizomi tasdiqlanganligi e'tirof etildi.

Shuningdek, Buxoro viloyati statistika organlarida 2024-yil 1-chorak davomida amalga oshirilgan ishlar hamda kelgusida statistika faoliyatini tashkil etish yuzasidan tizim oldiga belgilab berilgan vazifalarning ijrosi holati, hisobot va ijro intizomini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar samaradorligi muhokama etildi.

Bundan tashqari, iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha maqsadli kompleks dasturlar monitoringi uchun doimiy ravishda miqdoriy ko'rsatkichlar shakllantirib borildi, hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi holatini kompleks tavsiflovchi tahliliy-statistik ma'lumotlar tayyorlanib, har oyda Statistika agentligi va viloyat hokimligiga taqdim etib borildi.

Jumladan, Statistika dasturi doirasida boshqarma va tuman (shahar) statistika bo'limlari tomonidan 2024 - yilning 1-choragida amalga oshirilgan ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma'lumotlarni keltirib o'tdi.

Jumladan, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-mart oylarida Buxoro viloyatining yalpi hududiy mahsuloti hajmi joriy narxlarda 10 176,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023-yilning mos davri bilan taqqoslaganda 6,9 foizga o'sdi.

Shuningdek, viloyat korxonalarini tomonidan 2024-yilning yanvar-mart oylarida 7,7 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi indeksi 106,8 foizni tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 4,2 trln. so'mni tashkil etib, 2023 - yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,3 foizga yetdi.

2024 - yilning yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmida 2023-yilning mos davriga nisbatan (229,8 foiz) o'sish kuzatildi. Viloyatda jami 2,0 trln. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 108,9 foizga teng bo'ldi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 39 692 tani tashkil etib, ulardan 30 093 tasi yoki 75,8 foizi faoliyat ko'rsatmoqda. 2024- yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 1 022 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 554 taga kam.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 5,3 trln. so'mni, 2023-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,9 foizni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi 4 067.7 mln. so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 109,3 foizga oshdi. Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2024- yilning yanvar-mart oylarida 315,3 mln. AQSH dollarini, jumladan eksport 65,5 mln. AQSH dollarini va import 249,8 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning 1-aprel holatiga viloyat bo'yicha doimiy aholi soni 2 050,6 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 6,6 ming kishiga yoki 100,3 foizga o'sdi.

Yig'ilishda, Buxoro viloyati statistika boshqarmasi va bo'limlarida 2024- yil 1- chorak davomida amalga oshirilgan ishlar hamda kelgusida statistika faoliyatini tashkil etish yuzasidan tizim oldiga belgilab berilgan vazifalarning ijrosi holati, hisobot va ijro intizomini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar samaradorligi muhokama etildi.